



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



**“BADIY GRAFIKA VA DIZAYN
SOHASIDA BO‘LAJAK
MUTAXASSISLARNI
TAYYORLASHNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”
MAVZUSIDA**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI**

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**



TERMIZ - 2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**BADIIY GRAFIKA VA DIZAYN HAMDA
MILLIY LIBOS, KASHTACHILIK, TO'QIMACHILIK
KAFEDRALARI**

**BADIIY GRAFIKA VA DIZAYN SOHASIDA BO'LAJAK
MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

Respublika ilmiy-texnik anjumani

I qism

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПОДГОТОВКИ
БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ
ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ГРАФИКИ И ДИЗАЙНА**

Республиканская научно-техническая конференция

Часть I

**CURRENT PROBLEMS AND SOLUTIONS FOR TRAINING
FUTURE SPECIALISTS IN THE FIELD OF ART GRAPHICS AND
DESIGN**

Republican scientific and technical conference

Part I

21-22-noyabr 2024-yil

TERMIZ – 2024

**BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH**

Kamolov Iftixor Baxtiyorovich

QarDU, p.f.d. (DSc), professor

Avliyakulova Nafisa Muzaffarovna

BuxDU, dotsent


Dunyoda innovasion yondashuvlar asosida talabalarning raqamli texnologiyalari asosida kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan modernizasion didaktik tizimni takomillashtirish, tarkib toptirishning samarali shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tasviriy san'at sohasi bilan bog'liqlikda talabalarning raqamli texnologiyalari asosida kompetentligini rivojlantirish hamda ularni axborotlarga ishlov berish hamda ijod namunalari yaratishda bo'lajak mutaxassislarning individual "elektron palitra"sini tarkib toptirishni taqozo etadi.[1]

Mamlakatimizda san'at va madaniyatning turli sohalari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integrasiyasini ta'minlash asosida o'qitish sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovasion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Sifatli ta'lim xizmatlari inqoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash" kabi muhim vazifalar belgilandi.[3]

Bu esa, talabalarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish omillari, pedagogik-psixologik shart sharoitlari, axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, madaniyat va san'at sohasida teatr, kino, televidenie, xalq ijodiyotini rivojlantirish borasidagi zamonaviy talablarga, xalqimizning tobora ortib borayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlariga javob beradigan yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash darajasi hamda sifatini takomillashtirish va oliy ta'lim muassasalarida yaratilgan mavjud moddiy-texnik bazadan yanada samarali foydalanish maqsadida hukumatimizning qator qarorlari qabul qilindi.[2] Talabalarda raqamli texnologiyalar asosida kompetentlikni nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirishning umumiy tuzilmasi quyidagilarda na'moyon bo'ladi: [5] (1-rasm).

Ayniqsa, tasviriy san'at va muxandislik grafikasi ta'lim yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida raqamli texnologiyalar asosida kompetentlikni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. [4]



Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini raqamli texnologiyalari asosida kompetentlikni rivojlantirishda talabani o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish hamda interfaol ta'lim sharoitida pedagog faoliyatini modernizatsiyalash ham muhim o'rin tutishi ko'rsatib berildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zubrilin K. M., Muzafarova A. N. Improvement of the Methodology for the Development of Professional Competence of Future Teachers of Fine Arts //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. [82-85].
2. Muzafarova A.N. FORMS OF PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR VISUAL AND CREATIVE ACTIVITIES //Euro-Asia Conferences. – 2021. – C. [119-123].
3. Азимов С.С. Авлиякулов М.М., Собиров Т.Р, Бадиёв М.М.- Дидактических задач в развитии пространственного воображения студентов //European science-2021. № 2 [58]
4. N.M.Avliyakulova-This is the role of visual art in attracting students to visual and creative activities. International Engineering Journal For Research & Development-2020 y. [151-153]
5. N.M.Avliyakulova- Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» fanidan topshiriqlarni nazorat qilish va baholash. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. 2021 yil 12 B-[270-276]